

XALQ HUNARMANDCHILIGI FANINI O‘QITISHDA KREATIV YONDASHUVLARDAN FOYDALANISHNING SHAKLLARI VA VOSITALARI

Miratdinova Gulayim Abilqayir qizi
Ajiniyoz nomidagi NDPI 2 kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada texnologiya fani darslarida xalq hunarmandchiligi fanini o‘qitishda kreativ yondashuvlardan foydalanishning shakllari va vositalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy ta’lim, verbal, naqsh, noverbal, vizual, audio, shakl, tabiiy, texnologiya, tizim, innovatsiya, qobiliyatlar, ko‘nikma, kreativ, xalq, san’at, ijodkorlik, loyihalash.*

Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning mohiyati ta’lim mazmuni va shaklini takomillashtirishga qaratilgan. Xalq hunarmandchiligi an’ana tarzida tasviriy va amaliy san’at san’atining ajralmas qismi hisoblanib kelinmoqda. O‘z navbatida xalq amaliy san’ati xalq hunarmandchiligi sohalari bilan juda ko‘p uyg‘unlashgan hamda qo‘shilib ketadigan tomonlari juda ko‘pdir. Ayniqsa, ta’lim tizimida o‘quvchilarga badiiy ta’lim va tarbiya berishda bu amaliy fan sohalarining o‘zaro aloqadorligi, bir-birini mustahkamlashi muhim omillaridan hisoblanadi.

Talabalar texnologik ta’limning turli sohalari, yo‘nalishlari bo‘yicha bilim olishlari, tushuncha va tasavvurlarga ega bo‘lishlarida turli o‘quv- tarbiyaviy tadbirlar ham muhim o‘rin egallaydi. Texnologiya fanining amaliy mazmundaligi va ishlab chiqarish bilan bevosita va uzviy bog‘liqligi tufayli turli o‘quv-tarbiyaviy tadbirlarni bolalar ishtirokida o‘tkazilishining ahamiyati juda kattadir[1].

O‘quvchilarning texnologiya fanidan o‘tkaziladigan dars mashg‘ulotlarida o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini, ishlab chiqarish va mehnat jarayoni to‘g‘risidagi tasavvur va tushunchalarini, amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda, rivojlantirishda hamda mustahkamlashda, hamda bevosita unumli mehnat jarayonida ishtirok etishlarini ta’minlashda tanishib chiqqan 20 dan ziyod turdagi o‘quv- tarbiyaviy tadbirlarning o‘rni juda kattadir.

Xalq hunarmandchiligida va uning turli sohalarida detallar (buyum qismlari)ga ishlov berishning aniqligiga rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq hunarmandchiligida uchraydigan shakl va naqshlarning aniq geometrik o‘lchamda emasligini turli xil egri-burchaklarga, ijodiy, milliy xarakterga ekanligini nazarda tutiladi[2]. Xalq hunarmandchiligida uchraydigan shakl va naqshlarning aniq burchak geometrik o‘lchamga ega emasligi, ijodiy va milliy xarakterdaligi detallar o‘lchamiga, tayyorlanish sifatiga, aniq davlat talablari, shablonlari va standarti qo‘yilmasligini olib keladi. Buyumlar sifati va o‘lchamlari aniqligiga asosiy o‘lchov me‘zoni bo‘lib, mohir, yuqori malakali xalq ustalarining tayyorlagan buyumlari va tutgan yo‘llari, ish uslublari xizmat qiladi. Xalq hunarmandchiligi bo‘yicha tashkil etiladigan mashg‘ulotlar, to‘garak rahbarlari, shu

yo‘nalishdagi mehnat faoliyatining amaliy va ishlab chiqarish, qo‘l mehnati mazmunida ekanligini nazarda tutib ta‘lim muassasasi uslubiy kengashi bilan kelishilgan holda talablarni o‘zlari belgilashlari lozim. Detallarga ishlov berish aniqligi belgilangan talablarni tuzishda ishlab chiqarish topshiriqlarining yakka xarakterdagi, o‘quvchilarning yoshi, aqliy, psixofiziologik xususiyatlariga mos kelishlarini e‘tiborga olishlari lozim.

Xalq hunarmandchiligida mehnat yumushlarining to‘g‘ri bajarilishi quyidagi hollarda namoyon bo‘ladi.

Masalan, ganchkorlik bo‘yicha:

- yasalayotgan shaklning tasvirini va chizma o‘lchamini to‘g‘ri chizib, belgilab olish;
- ganch qorishmasi yopishtirilayotgan buyumning yuzasini to‘g‘ri tayyorlash;
- naqshning loyihasini aniq va to‘g‘ri tayyorlab olish;
- ganch qorishmasini tayyorlash, uning asosida yopishtirish va kesish asboblari to‘g‘ri ushlab, unumli foydalanish;

- naqsh va shakllarni kesishda tejamkorlikka rioya qilish, to‘g‘ri mehnat harakatlarini bajarish;

- shakllarni, naqshlarni pardoqlashda nozik harakatlarni bajara olish, jilvirlash asboblari, materiallarni to‘g‘ri ishlatish;

- xalq hunarmandchiligida mehnat faoliyati xavfsizlik qoidalariga rioya qilish amaliy va ishlab chiqarish faoliyatida hunarmandlar sog‘lig‘ini, ish qobiliyatini saqlash va mehnat asboblari foydalanish umrini uzaytirishning asosiy garovlaridan biri hisoblanadi [3].

O‘quvchilar ijodkorlik darajasiga chiqarish uchun bilimlarni ko‘proq mustaqil izlashga, egallashga o‘rgatish kerak. Bu yerda eng muhimi, har bir o‘quvchi o‘zida mavjud imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini hosil qilishdir. Ushbu maqsad uchun o‘quv jarayoniga maxsus ijodiy topshiriqlarni ko‘plab kiritish, o‘quvchilarga ilmiy-nazariy, tuzuvchilik, ta‘mirlash, yangi buyumlar, qurilmalar yasash faoliyatlarini shakllantirib borish lozim.

Verbal vositalarning asosini axborot tashkil qiladi. Bular so‘zlar bilan ifodalanadigan axborotlar bo‘lib, ularni so‘z orqali ifodalab berish uchun o‘qituvchi uni o‘zlashtirgan bo‘lishi, ya‘ni shu axborot haqidagi bilimga ega bo‘lishi lozim. Boshqacha aytganda, pedagogik texnologiyalarning verbal vositalarini o‘qituvchining bilimlari darajasidagi axborotlar tashkil qiladi. Shu sababli hozirda ta‘lim jarayonida faqat o‘quvchi va o‘qituvchining ishtirok etishi yetarli bo‘lmay qoldi [4].

Zamonaviy ta‘limni amalga oshirishning yana bir zarur sharti o‘quv fanlari bo‘yicha axborot manbalari, shu jumladan, yangi axborot texnologiyalarining tez va qulay foydalanish imkonini beruvchi turlaridan har bir o‘quvchi va o‘qituvchi erkin foydalana oladigan sharoit yaratishdan iborat. Ya‘ni hozirda sifatli ta‘lim berish uchun an‘anaviy ikkita tomon — o‘quvchi- o‘qituvchiga zarur axborotlarni yetkazib turuvchi xizmatdan iborat uchinchi tomon faoliyatini tashkil qilish zarur [5].

Noverbal vositalar imo-ishora, qo‘l, gavda harakatlari orqali biror ma‘no-mazmunni ifodalash yoki ta‘kidlashdan iborat. Noverbal vositalar jiddiy ahamiyatga ega bo‘lib, ularning o‘rnini boshqa narsa bosa olmaydi. Insonning har bir harakati ma‘lum ma‘noga ega bo‘lib, bu harakatlar turli xalqlarda turlicha tushuniladi. Bu harakatlarni noverbal nutq deb

nomlash qabul qilingan. Noverbal nutq, insonning u yoki bu muskullarining harakati orqali amalga oshiriladi. Shu o‘rinda insonning har qanday harakati, shu jumladan, uning fikrlashi ham undagi ma'lum muskullar harakatidan iborat ekanligini eslatib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Vizual (ko‘rgazmali) vositalar pedagogik texnologiya jarayonida o‘quvchilar ko‘z bilan ko‘rishlari uchun mo‘ljallangan barcha vositalarni o‘z ichiga oladi. Bularga sinf doskasidagi yozuv va boshqa tasvirlar, kitoblardagi yozuv va tasvirlar, tarqatma materiallar, fotosuratlar, tasviriy san‘at asarlari, video, kino tasvirlar, jonivorlar, o‘simliklar, tabiat obyektlari, turli buyumlar va boshqalar kiradi.

Shuningdek, xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanini o‘qitish– sanoatda ishlab chiqariladigan badiiy buyumlarni loyihalashni o‘rganishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014.
2. Innovatsion ta’lim texnologiyalari /Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
3. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. -T.: 2017, 39 b
4. Zohidova D.A. Hunarmandchilikka kirish / Metodik tavsiyanoma. – Toshkent, O‘MKXTRI, 2001.
5. Shoyoqubov Sh.K O‘zbek xalq amaliy-bezak san’ati. – T:, 2009